XALQ DEPUTATLARI YANGIBOZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-iyun VII-10-59-12-178-K/25 Yangibozor tumani

Yangibozor tumanidagi istirohat bog‘ini nomlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasi”ning 2025-yil 16-apreldagi 01-19-09/3648-sonli murojaatnomasi va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” 2025-yil 6-maydagi 05-19-7145-son ekspertiza xulosasiga asosan tuman hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi” - tuman hokimi R.Jumaniyazovning tuman markazi, Yangiyop mahallasida joylashgan istirohat bog‘iga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda yangi nomlangan 1 ta istirohat bog‘ining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (B.Artiqboyev), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (S.Rajapov), Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (R.Nurmetov) tuman hokimligi bilan birgalikda yangi nomlangan istirohat bog‘ini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (S.Rajapov) istirohat bog‘iga yangi nomi yozilgan ko‘rsatgich belgilar, peshlavhani zamonaviy dizayin asosida o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror matbuotda rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Masharipova) va korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Ortikov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi

JUMANIYAZOV
RUSLAN
RUSTAMOVICH

Xalq deputatlari Yangibozor tumani
Kengashining
2025-yil 4-iyundagi
VII-10-59-12-178-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Tumanda yangi nomlangan istirohat bog‘i

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif**	**Izoh**
1.	Istirohat bog i	Yangiyop mahallasi	Nomsiz	Yangi O‘zbekiston	